O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDA TIBBIY XIZMATLAR KO‘RSATISH HOLATI VA TENDENSIYALARI TAHLILI

Raximova Maftuna Axmadjon qizi
Farg’ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya:
Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimida tibbiy xizmatlar ko‘rsatishning hozirgi holati va so‘nggi yillarda kuzatilayotgan asosiy rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, tibbiy xizmatlar qamrovi, infratuzilmaning rivojlanishi hamda xizmatlar sifatidagi o‘zgarishlar baholanadi. Tadqiqot natijalari tibbiy xizmatlar ko‘rsatish tizimida ijobiy siljishlar bilan birga, mavjud muammolar va istiqbolli yo‘nalishlarni aniqlash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: *sog‘liqni saqlash tizimi, tibbiy xizmatlar, sog‘liqni saqlash islohotlari, tibbiy xizmatlar sifati, O‘zbekiston.*

KIRISH

Sog‘liqni saqlash tizimi har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim strategik ahamiyatga ega. Aholining salomatlik darajasi mehnat unumdorligi, inson kapitali va ijtimoiy barqarorlik bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilish va tibbiy xizmatlar ko‘rsatish sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, birlamchi tibbiy yordamni rivojlantirish, xususiy sektorni jalb etish va raqamli texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi O‘zbekiston sog‘liqni saqlash sohasida tibbiy xizmatlar ko‘rsatish holatini tahlil qilish va asosiy tendensiyalarning o‘zgarishini ilmiy nuqtayi nazardan baholashdan iborat.

O‘zbekistonda sog‘liqni saqlashni isloh qilish va xizmat sifatini oshirish, aholi salomatligini muhofaza qilish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini rivojlantirish hamda tibbiy xizmatlardan barcha uchun teng foydalanishni ta’minlashga qaratilgan. Ushbu islohotlar doirasida shoshilinch yordam tizimini takomillashtirish va tizimli davlat dasturlari orqali aholi sog‘lig‘ini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi.

Asosiy islohot yo‘nalishlari:

- **Tibbiy xizmatlar sifatini oshirish:** Davlat dasturlariga muvofiq ko‘rsatilayotgan yordam darajasini yuksaltirish.
- **Birlamchi yordamni rivojlantirish:** Aholi sog‘lig‘ini muhofaza qilishni birlamchi bo‘g‘indan boshlash.
- **Tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyati:** Barcha uchun teng, sifatli va tezkor tibbiy xizmatni ta’minlash.
- **Shoshilinch tibbiy yordam:** Ushbu tizimni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish.

Ushbu chora-tadbirlar aholi farovonligini oshirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda tibbiyot sohasi yurtimiz taraqqiyotining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Sog‘lom jamiyat, sog‘lom millat g‘oyasi amalda ro‘yob topayotgan bir davrda tibbiyot sohasining roli yanada oshib bormoqda. O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar butun soha uchun yangi davrni boshlab berdi.

Ilgari asosan poytaxtda bajarilgan yuqori texnologik va diagnostika-davolash usullarining 400 dan ortig‘i hududlarda amalga oshirilmoqda. Yuzlab murakkab amaliyotlar viloyat markazlariga, kam invaziv operatsiyalar tuman darajasiga tushirildi. Bugungi tibbiyotdagi o‘zgarishlarni qishloq va olis hududlarda yashayotgan yuzlab odamlarimiz his qilmoqda, xalqaro tashkilotlar, tahlil va reyting markazlari e’tirof etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sog‘liqni saqlash sohasida innovasion jarayonlarni boshqarish samaradorligini takomillashtirish borasida xorijiy davlatlarda bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, P.Druker, R.Nelson, Y.Shumpeter, B.Lundval, S.Tomson, R.Osborn, R.Busse, A.Rayzberg, A.Xarding, A.Preker kabilarning ilmiy ishlari bu borada alohida ahamiyat kasb etadi.[1]Ushbu olimlarning tadqiqot ishlarida innovasiyalarning mohiyati, innovasion jarayonlarning yuzaga kelish sharoitlari, sog‘liqni saqlash sohasida innovasion jarayonlarni tashkil etish va boshqarish masalalari muayyan darajada nazariy va uslubiy jihatdan o‘rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlarida sog‘liqni saqlash sohasida innovasion jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning nazariy jihatlari N.Z.Mazur, V.V.Ivanov, I. V. Mil'kina, R.F.Fatxutdinov, S.V.Polyanskaya, S.A.Filin, A.V.Tebekin kabi olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan . Ushbu tadqiqotlarda innovasiyalarning sog‘liqni saqlash sohasida amal qilish xususiyatlari, sohada innovasion jarayonlarni boshqarish mexanizmlari shakllanishini nazariy jihatdan baholashga e'tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash sohasini rivojlantirish, soha faoliyatini moliyalashtirish hamda sog‘liqni saqlash sohasida innovasion jarayonlarni boshqarish masalalari S.S.G‘ulomov, N.X.Jumaev, D.A.Raxmonov, M.M.Tashxodjaev, B.K.G‘oyibnazarov, Sh.N.Zaynutdinov, B.Mamatqulov, D.Qosimova, F.Ergashev, D.Raximova, A.O‘.Sultonova, G.Sh.Xonkeldieva[2] kabi olimlarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi va boshqa rasmiy manbalar ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi 5–7 yilda bemorlarning poliklinika va kasalxona xizmatlaridan foydalanishi oshgan, profilaktik ko‘riklar va skrining dasturlari keng joriy etilgan.

Shu bilan birga, hududlar orasida tibbiiy xizmatlar sifat va imkoniyatlarida farqlar mavjud.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki:

Xalqaro tajriba va O‘zbekiston tajribasi uyg‘unligi: raqamlashtirish, natijaga yo‘naltirilgan va qiymatga asoslangan modellar tibbiiy xizmatlar samaradorligini oshirishda muhim.

Mavjud muammolar: hududlar orasidagi nomutanosiblik, moliyaviy samaradorlikni baholashdagi cheklovlar, kadrlar yetishmovchiligi.

Istiqbollari yo‘nalishlar**:** elektron tizimlarni chuqur integratsiyalash, xalqaro standartlarga muvofiq sifatni baholash, birlamchi tibbiiy yordamni rivojlantirish

[1] Drucker P. Innovation and entrepreneurships: Practice and principles / P. Drucker. L.: Pan Books, 1986, p. 55.;
Nelson R. National Innovation Systems: A Comparative Analysis. Oxford: Oxford University Press, 2003.; Шумпетер Й.А. История экономического анализа. / Й.А. Шумпетер; Пер. с англ. под ред. В.С.Автономова. СПб.: Экон. шк.: С.-Петерб. гос. ун-т экономики и финансов; М. : Высш. шк. экономики, 2001. - 1664 с.; Lundvall, B.A. National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning / B.A. Lundvall. London: Pinter Publishers, 2002; International Profiles of Health Care Systems, 2012. Australia, Canada, Denmark, England, France, Germany, Iceland, Italy, Japan, the Netherlands, New Zealand, Norway, Sweden, Switzerland, and the United States. Edited by S. Thomson, R. Osborn, D. Squires, M. Jun. The Commonwealth Fund, November 2012.; Busse R, Riesberg A. Health care systems in transition: Germany. Copenhagen, WHO Regional Office for Europe on behalf of the European Observatory on Health Systems and Policies, 2004.; Harding, A. and Preker, A.S. (2001) A conceptual framework for organizational reforms of hospitals. In Preker A.S. and Harding A., eds. Innovations in Health Services. Vol.1. The Corporatization of Public Hospitals. Baltimore, MD: Johns Hopkins University Press. 2001.
[2] Гулямов С.С., Жумаев Н.Х., Рахмонов Д.А., Ташходжаев М.М. Ижтимоий соҳада инвестицияларнинг самарадорлиги. Монография. –Т: IQTISODIYOT, 2019.; Ғайибназаров Б.К., Қутлиев О.А., Абдувалиева Ё.Р. Соғлиқни сақлаш миллий ҳисоблари (ССМҲ) ни шакллантириш мақсадида соғлиқни сақлаш тизимини тадқиқ қилиш. Монография. –Т: 2015.; Зайнутдинов Ш.Н. Инновационный менеджмент. –Т.: Академия, 2006. –С.267; Зайнутдинов Ш.Н. Теория пять «И» или новая система факторов процветания государства.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimida tibbiiy xizmatlar ko‘rsatishning hozirgi holati va so‘nggi yillarda kuzatilgan asosiy tendensiyalarni tizimli ravishda aniqlash va tahlil qilishdir.. Mavzuni ilmiy o‘rganish, statik tahlillar, mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish jarayonida turli xil adabiyotlar va maqolalar tahlilidan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash sohasida tibbiy xizmatlar ko‘rsatish holati so‘nggi yillarda izchil islohotlar jarayoni bilan tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tibbiy xizmatlarning qamrovi va sifati bosqichma-bosqich yaxshilanib bormoqda, ayniqsa birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Oilaviy poliklinikalar faoliyatining kuchaytirilishi va qishloq joylarda tibbiy punktlar tarmog‘ining kengaytirilishi aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirdi.

Shu bilan birga, tibbiy xizmatlar sifatida hududlar o‘rtasida tafovutlar saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, chekka va qishloq hududlarida malakali tibbiyot xodimlari yetishmasligi, zamonaviy tibbiy uskunalar bilan ta’minlanganlik darajasining pastligi tizim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu holat sog‘liqni saqlash tizimida resurslarni hududiy jihatdan yanada muvozanatli taqsimlash zarurligini ko‘rsatadi.

Tahlillar shuningdek, xususiy tibbiyot muassasalari ulushining ortib borayotganini ko‘rsatadi. Bu raqobat muhitini kuchaytirib, tibbiy xizmatlar sifati va xilma-xilligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq xususiy sektor xizmatlarining narxi barcha qatlamlar uchun birdek maqbul emasligi ijtimoiy tenglik masalasini kun tartibiga olib chiqadi. Shu sababli davlat va xususiy sektor o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Olib borilgan tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash sohasida tibbiy xizmatlar ko‘rsatish tizimi barqaror rivojlanish tendensiyasiga ega ekanligi aniqlandi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar tibbiy xizmatlarning hududiy qamrovini kengaytirish, xizmatlar sifati va aholining ulardan foydalanish darajasini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- birlamchi tibbiy yordam tizimi sog‘liqni saqlashning asosiy bo‘g‘ini sifatida mustahkamlanmoqda;
- tibbiy xizmatlar ko‘rsatishda davlat va xususiy sektor ulushi ortib bormoqda;
- hududlar kesimida tibbiy xizmatlar sifati va mavjudligida nomutanosibliklar mavjud;
- kadrlar tayyorlash va moddiy-texnik bazani rivojlantirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash xizmatlari ko‘rsatish sohasida sezilarli ijobiy tendensiyalar mavjud. Jumladan, xizmatlar hajmining o‘sishi yaqqol ko‘zga tashlanadi: 2025-yilning yanvar–noyabr oylarida sog‘liqni saqlash sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 18,2 trillion so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 15,3 % ga oshdi. Bu ko‘rsatkich sohadagi barqaror o‘sish tendensiyasini aks ettiradi va tibbiy xizmatlardan foydalanish hajmining yildan-yilga ortayotganini ko‘rsatadi. Xizmatlar bozorining o‘sish sur’ati 2025-yil yanvar–oktyabr oylarida ham davom etib, jami 16,5 trillion so‘mga yetdi, bu esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 15,4 % ga ortganini bildiradi. Statistika shuni ham ko‘rsatadiki, eng yuqori xizmat hajmi Toshkent shahrida (7,7 trln so‘m), eng past ko‘rsatkich esa viloyatlar kesimida farq bilan qayd etilgan. Boshqa bir muhim tendensiya — xususiy tibbiyot sektorining tez o‘sishi bo‘lib, 2017-yilda taxminan 3 500 ta bo‘lgan xususiy tibbiy muassasalar soni 9 000 dan ko‘pga yetgan. Shuningdek, xususiy sektor sog‘liqni saqlashdagi kasalxona o‘rinlarining 35 % ini tashkil qiladi, bu tizimda davlat sektori bilan raqobatning kuchayganini ko‘rsatadi. Shunga qaramay, tibbiy xizmatlarni yetkazib berish samaradorligida farqlar saqlanib qolmoqda. Masalan, prezident matbuot xizmatining ma’lumotiga ko‘ra, O‘zbekiston aholisi bo‘yicha har 10 000 nafar uchun taxminan 29 ta shifokor to‘g‘ri keladi, bu ba’zi rivojlangan davlatlar bilan solishtirganda yuqori ko‘rsatkich bo‘lsa-da, sifati va samaradorlik jihatidan hali takomillashtirish lozimligini ko‘rsatadi.

Bu statistikalar asosida shuni aytish mumkin: sog‘liqni saqlash xizmatlarining umumiy hajmi o‘smoqda, xizmatlar bo‘yicha talab ortmoqda, biroq xizmatlarning hududiy taqsimoti, malakali kadrlar yetishmasligi va tez tibbiy yordam chaqiriqlari sonining yuqoriligi kabi masalalar sohada hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar sifatida qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash sohasida tibbiy xizmatlar ko‘rsatish tizimi so‘nggi yillarda barqaror rivojlanib borayotganini ko‘rsatdi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, sog‘liqni saqlash xizmatlari hajmining yillik o‘sishi 15 foizdan ortiqni tashkil etib, aholining tibbiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoji va ulardan foydalanish darajasi oshayotganini tasdiqlaydi. Xususan, 2025-yilda ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlar qiymatining sezilarli darajada oshishi davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash sohasida tibbiy xizmatlar ko‘rsatish samaradorligini yanada oshirish maqsadida, avvalo, birlamchi tibbiy yordam tizimini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratish zarur. Aholining sog‘liqni saqlash tizimiga murojaat qilishida tez tibbiy yordam xizmatlari ulushining yuqoriligi birlamchi bo‘g‘inda profilaktika, erta tashxis va doimiy tibbiy kuzatuv mexanizmlarini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bois oilaviy poliklinikalar va mahalla tibbiyot punktlari faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash muhim hisoblanadi.

Shuningdek, hududlar o‘rtasida tibbiy xizmatlar sifati va mavjudligidagi nomutanosibliklarni kamaytirish maqsadida chekka va qishloq hududlarida tibbiy infratuzilmani rivojlantirish, zamonaviy tibbiy uskunalar bilan ta’minlash hamda malakali kadrlarni jalb etish uchun rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni kuchaytirish lozim. Bu esa aholining yashash joyidan qat’i nazar, sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, sog‘liqni saqlash tizimida kadrlar salohiyatini oshirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tibbiyot xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonlarini zamonaviy tibbiy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish talab etiladi. Raqamli sog‘liqni saqlash elementlarini keng joriy etish, jumladan elektron tibbiy kartalar va telemeditsina xizmatlarini rivojlantirish tibbiy xizmatlar sifatini oshirish bilan birga, tizimning shaffofligi va boshqaruv samaradorligini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish orqali tibbiy xizmatlar bozorida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, xususiy tibbiyot muassasalarini ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlar ko‘rsatishga jalb etish maqsadga muvofiqdir. Bu aholining barcha qatlamlari uchun tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, sog‘liqni saqlash tizimining umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyuldagi PF–6221-son Farmoni “Sog‘liqni saqlash sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

2. Drucker P. Innovation and entrepreneurships: Practice and principles / P. Drucker. L.: Pan Books, 1986, p. 55

3. Nelson R. National Innovation Systems: A Comparative Analysis. Oxford: Oxford University Press, 2003

4. Gulyamov S.S., Jumayev N.X., Raxmonov D.A., Tashxodjayev M.M. Ijtimoiy sohada investit siyalarning samaradorligi. Monografiya. –T: IQTISODIYOT, 2019.;

5. G‘ayibnazarov B.K., Qutliyev O.A., Abduvaliyeva Yo.R. Sog‘liqni saqlash milliy hisoblari (SSMH) ni shakllantirish maqsadida sog‘liqni saqlash tizimini tadqiq qilish. Monografiya. –T: 2015

6. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimi: statistik to‘plam. — Toshkent, 2024.

7. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Sog‘liqni saqlash xizmatlari ko‘rsatkichlari bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar. — Toshkent, 2023–2025 yillar.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi. Sog‘liqni saqlash sohasini rivojlantirish bo‘yicha tahliliy hisobot. — Toshkent, 2024.

9. Abdurahmonov A.A., Karimov B.B. Sog‘liqni saqlash iqtisodiyoti va tibbiy xizmatlar samaradorligi. — Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2021.